


# JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

JISN  
Volume | 2  
Issue | 8  
2026

# 2026



## KICHIK VA O'RTA BIZNESNI IFODALOVCHI IQTISODIY SUB'YEKTLARNING IQTISODIY JARAYONLARNI MATEMATIK-STATISTIK USULLAR BILAN O'RGANISH

**H. N. Axmedov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti  
e-mail: [axmedov\\_h\\_n@gmail.com](mailto:axmedov_h_n@gmail.com)



**Accepted Date:**  
January 05, 2026  
**Published Date:**  
January 10, 2026

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jisn>

### License



This work is licensed under  
a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

### ANNOTATION:

Ushbu maqolada Xitoy hamda Turkiya davlatlarining hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasi uchun infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha bir nechta adabiyotlar tahlilini va ular tajribasini mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, yuqorida nomlari keltirilgan davlatlarda tadbirkorlik infratuzilmasini hududlarda rivojlantirish zarurati, uning nafaqat kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga balki mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri o'rganilgan. Maqolada tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishning xorij tajribasini yurtimizda qo'llashga e'tibor bergan holda masalaga yondashilgan va hududlarda infratuzilmani rivojlantirishda inobatga olinishi kerak bo'lgan ayrim jihatlarni tavsiya sifatida keltirib o'tilgan.

### KEYWORDS:

hududiy infrastruktura, инфраструктура, kichik biznes va tadbirkorlik, Xitoy, Turkiya.

## Kirish

Bugungi kunda istalgan sohani rivojlantirish uchun xorij tajribasini o'rganish va uni mamlakatda foydalanish imkoniyatlarini baholash dolzarb hisoblanadi. Sababi ayrim davlatlar ma'lum bir yo'nalishda muvaffaqiyatga erishgan holda dunyo hamjamiyatiga na'muna yaratgan bo'ladi. Bunday muvaffaqiyatli tajribalardan foydalanish kelgusi xavf-hatarlarni va xarajatlarni pasaytirish imkonini beradi. Shu sababdan hududlarda kichik biznes va tadbirkorliklar uchun infrastrukturani rivojlantirish bo'yicha Turkiya va Xitoy davlatlar tajribasini o'rganishga qaror qildik.

Bizga ma'lumki, Xitoy davlati kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga zarur infrastrukturani yaratish bo'yicha yetakchi davlatlardan sanaladi. Boshqa davlatlar tajribasidan farqi shundaki mamlakatda qisqa muddatda mahalliy bozorlarni to'yintirish hamda eksportga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo'ladigan infratuzilmani yarata oldi. Shuningdek mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi hamda jamiyat farovonligining negizi bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodchi olimlar tadbirkorlik muhitini iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni yanada ommalashtirishda juda ham muhim omil deb hisoblashadi. Mamlakatlar darajasida olib qarasa, Xitoy doimiy ravishda kichik biznes hamda tadbirkorlik sohasini rivojlantirish uchun islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Korxonalar darajasida biznes muhitini optimallashtirishni foyda solig'i va xususiy mulk dahlsizligi o'zida aks ettiradi. Turkiya davlati ham Xitoy hukumati kabi mamlakat hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda zarur infrastrukturani yaratishda ulkan yutuqlarga erishgan

davlatlardan biri sanaladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar korxonalarining transaksion harajatlari va risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Aslida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga juda ko'plab omillar ta'sir etadi. Ko'plab olimlar tomonidan biznes muhitini yaxshilash tadbirkorliklar sonini ko'paytirishga xizmat qiladigan biznes infrastrukturani rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu bobda biz kichik va o'rta biznes sub'yektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlilini olib boramiz. Buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani ifodalovchi va ularining asosini tashkil etuvchi omillarni statistik va ekonometrik jihatdan o'zaro ta'sirchanligini aniqlash zarur.

Ijtimoiy infratuzilmaning tashqi ta'siri sezilarli. Ijtimoiy marjinal mahsuldorlik (IMM) ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy mahsulotlar uchun shaxsiy marjinal mahsuldorlikdan ustundir. Shu sababli, bunday ijtimoiy infratuzilmani xususiy moliyalashtirish talab qilinadigan darajadan kam bo'lishi mumkin. Shuning uchun davlat bunday ijtimoiy infratuzilma tashabbuslarini amalga oshirish uchun mablag' va boshqa zarur resurslarni darhol ta'minlashi kerak. Ijtimoiy infratuzilmani hukumat boshqarishi yoki nazorat, egalik qilishi shart emas, lekin hukumat siyosatni belgilashi va ularning qanday amalga oshirilishini nazorat qilishi kerak.

Ijtimoiy infratuzilma va uning KBTga ta'siri haqida avvalgi boblarda batafsil to'xtalib o'tdik. Endi esa ijtimoiy infrastrukturani ifodalovchi va ekonometrik modelimizda qo'llanilgan omillar va ularning xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

2.11.-jadval

Tahlil uchun o'zgaruvchilar tavsifi<sup>1</sup>

No	O'zgaruvchilar	Tavsifi
1	Y	Kichik va o'rta biznes korxonalari soni, birlikda
2	X2	Ishchi kuchi samaradorligi, koef.
3	X3	Shifoxonalar, birlikda
4	X4	Jinoyatlar soni, birlikda
5	X5	Bitiruvchilar soni, birlikda
6	X6	Uy xo'jaliklarining tabiiy gaz bilan ta'minlangan qismi, % da
7	X7	Uy xo'jaliklarining ichimlik suvi bilan ta'minlangan qismi, % da
8	X8	Elektr energiya ishlab chiqarish, mln. kwt
9	X9	Internetga ulangan korxonalar soni, birlikda
10	X10	Hududlarda qazib olinadigan yer osti resurslari summasi, mlrd. so'mda
11	X11	Hududlarda tashilgan yuk aylanmasi, ming tonna
12	X12	Hududlarda tashilgan yo'lovchi soni, birlikda
13	X13	Kichik va o'rta biznes korxonalariga tijorat banklari tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Statistika qo'mitasi ushbu sub'yektlari va ularning faoliyatiga ko'rsatkichlarni tekshirishdan oldin tanlab infratuzilmaning ta'sirini aniqlashda olish o'tkazilganligi sababli, hududlarda qo'llaniladigan usullarda hech qanday mavjud kichik biznes va tadbirkorlik noxolislik bo'lmaydi, deb hisoblaymiz.

2.12.-jadval

Modelda foydalaniladigan omillarning umumiy xarakteristikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
LKB&T	168	9.515088	.5591861	8.478661	11.35846
LNATRES	154	4.409674	2.692085	-3.506558	9.478671
LCRIME	168	8.52485	.5974878	7.13966	10.14812
LFREIGHT	168	10.69085	.9019609	8.619389	12.73803
LPASSENGER	168	8.835506	1.030577	7.302073	16.08554
LGRADUATE	168	8.197838	.7360044	6.761573	10.47858
LELECTR	144	6.00282	3.298795	-4.60517	9.905965
INVEST	168	6.382558	4.838192	.7	27.76657
INTERNET	98	21.9551	7.460274	8	44.5
DENSITY	168	709.3637	1813.672		7699.6
Suv	168	75.49762	15.01685	34.8	100

<sup>1</sup>Stata 15 statistik tahlil dasturi yordamida muallif tomonidan tomonidan ishlab chiqilgan

GAZ	168	68.65357	20.24168	99.9
-----	-----	----------	----------	------

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Tanlangan o'zgaruvchilardan foydalangan holda ekonometrik modelni yaratib olamiz. O'zbekistonning turli mintaqalarida kichik va o'rta biznes o'sishiga turli xil infratuzilmaviy omillar qanday ta'sir

qilishini o'rganish dissertatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun, ta'sirlarni aniqlash uchun KBT sonidan erksiz o'zgaruvchi sifatida foydalanildi.

$$\beta_0 + \beta_1 lenergy + \beta_2 lnatres + \beta_3 lcrime + \beta_4 lfright + \beta_5 lpassen + \beta_6 lgraduate + \beta_7 gaz + \beta_8 suv + \beta_9 density + \beta_{10} internet + \beta_{11} investment + \beta_{12} laborprod + \beta_{13} hospital + \mu_i + \delta_i Y = (1)$$

Birinchi farq vositasi tadqiqot ishining ekonometrik modelida qo'llaniladi, chunki yillik hisobot ma'lumotlaridagi ketma-ket avtokorrelyatsiyalarni tuzatish oson. Bundan tashqari, qaysi instrument modelni eng yaxshi tavsiflashini solishtirish uchun belgilangan effektli tenglamalarni qo'llaymiz. Modelda qamrab olingan omillarni test qilmasdan tahlilga o'tish avtokorrelyatsiyaga,

oqibatda noto'g'ri natijalar keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun biz ushbu muammoni hal qilish uchun birinchi ishni modelni tekshirish yondashuvidan foydalanamiz. Buning uchun korxonalar sonining loglangan omilini, infratuzilmani ifodalovchi erkli o'zgaruvchilarga nisbatan eng kichik kvadratlar usulida nisbatini o'lchab olamiz.

### 2.13.-jadval

Source	SS	df	MS	Number of obs=79,00		
				F( 13, 65) = 89.93		
<b>Model</b>	21.1010615	13	1.62315858	Prob > F = 0.0000		
<b>Residual</b>	1.17316319	65	.018048664	R-squared = 0.9473		
				Adj R-squared = 0.9368		
<b>Total</b>	22.2742247	78	.285566983	Root MSE = .13435		
LKBT	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf.	Interval]
<b>LENERGY</b>	.0354339	.0066903	5.30	0.000	.0220725	.0487953
<b>LNATRES</b>	.0028459	.0108703	0.26	0.794	-.0188635	.0245553
<b>LCRIME</b>	.1476154	.0535993	2.75	0.008	.0405703	.2546605
<b>LFREIGHT</b>	.0814909	.0405586	2.01	0.049	.0004899	.162492
<b>LPASSEN</b>	-.0183116	.0229971	-0.80	0.429	-.0642401	.0276168
<b>LGRADUATE</b>	-.0155989	.0327508	-0.48	0.635	-.0810068	.0498091
<b>GAZ</b>	.0018741	.0010399	1.80	0.076	-.0002027	.0039509
<b>SUV</b>	-.0094098	.0016416	-5.73	0.000	-.0126884	-.0061312
<b>DENSITY</b>	.000123	.0000168	7.32	0.000	.0000895	.0001566
<b>INTERNET</b>	-.0234114	.0040779	-5.74	0.000	-.0315555	-.0152672

<b>INVEST</b>	-0.002742	.0044697	-0.61	0.542	-.0116686	.0061846
<b>LABORPROD</b>	.0072184	.0015743	4.59	0.000	.0040743	.0103625
<b>HOSPITAL</b>	.0103042	.0008342	12.35	0.000	.0086382	.0119703
<b>_cons</b>	7.564228	.4611533	16.40	0.000	6.643241	8.485215

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

### Multikollinearlikning ikki turi mavjud.

Qat'iy bo'lmagan multikollinearlik, to'liq multikollinearlik va aniq multikollinearlik (u qisman deb ham ataladi). Agar modelning o'zgaruvchilari o'rtasida aniq chiziqli bog'lanish mavjud bo'lsa yoki bitta erksiz o'zgaruvchini boshqa mustaqil o'zgaruvchisi nuqtai nazaridan aniq tarzda chiziqli yozish mumkin bo'lsa, bu qat'iy multikollinearlik deb ataladi.

Misol uchun, makroiqtisodiy model yaratilayotganda eksport, import va sof eksport, o'zgaruvchilar sifatida hisobga olinganini tasavvur qiling. Ushbu uchta omilning barchasi modelga qo'shilganda, modelning tushuntirish o'zgaruvchilari bir-biri orqali chiziqli tarzda ifodalanganligini ko'rsatadi, chunki sof eksport eksport va import o'rtasidagi tafovutga teng.

Yuqoridagi ta'rif va misoldan qat'iy multikollinearlik masalasini qanday hal qilish mumkinligi aniq bo'ladi. Buning uchun ikkinchi o'zgaruvchini oling. Misol uchun, agar model allaqachon import va eksportni hisobga olgan bo'lsa, sof eksportni qo'shish yangi ma'lumotlarga hissa qo'shmasligi aniq va bu uchinchi omil osongina bekor qilinishi mumkin.

Sof multikollinearlik holatida zamonaviy ekonometrik dasturiy ta'minot chiziqli bog'liq o'zgaruvchilardan birini o'z-o'zidan olib tashlaydi, bu esa eng kichik kvadratlar bashoratini hisoblashni amaliy jihatdan amalga oshirishga imkon beradi.

Mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud bo'lsa, lekin aniq

chiziqli bog'lanish bo'lmasa, bu qisman multikollinearlik deb nomlanadi. Shunday qilib, ular "deyarli" chiziqli bog'liq, lekin bir biriga juda kuchli chiziqli tayanmaydi. Koeffitsient qiymatlarining aniqligi past va koeffitsient qiymatlarining standart xatolari qisman multikollinearlik mavjud bo'lganda sezilarli bo'ladi. Buning sababi, agar modeldagi ikkita mustaqil o'zgaruvchi kuchli korrelyatsion bog'liqlikda bo'lsa, ular ko'pincha bir vaqtning o'zida o'zgaradi va ularning erksiz o'zgaruvchiga ta'sirini ajratish qiyin. Shuning uchun individual koeffitsientlarni hisoblashning aniqligining pasayishi multikollinearlikning asosiy salbiy ta'siri hisoblanadi.

Variatsiya inflyatsiya omili yoki qisqacha  $VIF$  - bu dispersiyani oshiradigan multiplikator. Bu bir tomonlama regressiya senariysida dispersiyaning o'sishiga ishora qiladi. Agar o'zgaruvchilar ortogonal bo'lsa, u holda mos ravishda  $VIF_j = 1$  va  $R_j^2 = 0$  bo'ladi va o'zgaruvchilarning ahamiyati bir-biridan kamaymaydi. Bundan farqli ravishda, agar chiziqli bog'liqlik  $R_j^2 = 1$  yoki aniq multikollinearlik  $VIF_j = +\infty$  bo'lsa, koeffitsientlarning dispersiyasi ham cheksiz bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu vaziyatda regressiyani to'g'ri tahlil qilish qiyin.

Iqtisodchilarning fikricha, agar o'zgaruvchilardan qay birining  $VIF_j > 10$  bo'lsa, regressiya tenglamasida multikollinearlik mavjud bo'ladi. Bu raqam Gujarati darsligida ham qayd etilgan. Kvazi-multikollinearlik, ba'zi tanqidiy nazariyotga

ko'ra, nazariy masala emas. Ular ekonometrikadan bexabar bo'lganligi sababli, aniq kritik qiymatlarni aniqlash yoki uning

mavjudligi yoki yo'qligi haqidagi gipotezalarni baholash uchun protokollar yaratish usullari mavjud emas.

2.14.-jadval

VIF test natijalari

O'zgaruvchilar	VIF	1/VIF
LFREIGHT	5,01	0.199541
LGRADUATE	4,46	0.224167
HOSPITAL	4,17	0.239797
INTERNET	4,08	0.245252
LCRIME	4,07	0.245444
LNATRES	3,63	0.275386
SUV	3,56	0.280922
LABORPROD	3,12	0.320391
LGRADUATE	2,45	0.408252
LPASSEN	2,28	0.439130
LENERGY	2,01	0.497059
GAZ	1,99	0.502463
INVEST	1,81	0.552506
Mean VIF	3,28	

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ko'rish mumkinki, modelda foydalaniladigan o'zgaruvchilarning hech birida bu ko'rsatkich 10 dan yuqori emas. Bu shuni anglatadiki, modelimizdagi o'zgaruvchilarda multikollinearlik muammosi mavjud emas va ular to'g'ri tanlangan.

Ekonometrikada "geteroskedastiklik" atamasi regressiya modelining tasodifiy xatosining bir xil bo'lmagan (doimiy bo'lmagan) dispersiyasida ko'rsatilgan kuzatishlarning geterogenligini bildiradi. Ma'lumotlarning bir xilligi va modelning tasodifiy xatolari dispersiyasining izchilligini bildiruvchi homoskedastiklikning qarama-qarshi tomoni geteroskedastizmdir. Tasodifiy xatolarning heteroskedastikligi tufayli eng kichik kvadratlar usuli yordamida olingan taxminlar samarasiz.

Bunday holda, eng kichik kvadratlar bo'yicha parametrlarni baholashning kovariatsiya matritsasining an'anaviy bahosi ham ishonchsiz va noto'g'ri ekanligini isbotlaydi. Shunday qilib, olingan baholarning to'g'riligi haqidagi statistik xulosalar yetarli bo'lmashligi mumkin. Ushbu kontekstda heteroskedastlik uchun modellarni sinovdan o'tkazish ekonometrik modellarni yaratishning muhim bosqichlaridan biridir.

Goldfeld-Kvandt, Park, Glaser, Uayt, Brush-Pagan va Spermanning darajali korrelyatsiya testlari va boshqalar tasodifiy qoldiqlarda heteroskedastiklik mavjudligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Agar tasodifiy qoldiqlar normal taqsimlangan deb

hisoblansa va kuzatishlar yetarli bo'lsa, Goldfeld-Kvandt testi qo'llaniladi

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning turli mintaqalarida kichik va o'rta biznesning o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy elementlarni aniqlashdir. Tahlillar natijasida olingan topilmalar shuni ko'rsatadiki, hududlarda KBT rivojlanishiga KBTni moliyalashtirish, gaz, svet, suv, internet, ishchi kuchi samaradorligi kabi bir qancha infratuzilmani ifodalab keluvchi o'zgaruvchilar ta'sir qilishi aniqlandi.

Modelning hisob kitoblari natijasida qo'shimcha tadqiqotlar uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator muhim holatlar aniqlandi. Birinchidan, model yumshoq va qattiq infratuzilmaning birdek barcha tarmoqlarida mavjud kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, infratuzilmalarning rivojlantirilishi hududlarda KBTlarning mahsuldorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari xorijiy olimlar olgan natijalarga mos tushadi. Xususan, Eskribano<sup>2</sup>(2009) Afrika davlatlari misolida olib borgan tadqiqotlari orqali elektr ta'minoti infratuzilmasi sifatining pastligi barcha ishlab chiqarish omillari unumdorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini va korxonalar samaradorligiga eng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadigan infratuzilma komponentlaridan biri ekanligini aniqladi. Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, qishloq joylarda elektr energiyasi infratuzilmasining sifati va ishonchliligini oshirish, korxonalar unumdorligini va uy xo'jaliklarining daromadlarini oshirish uchun juda muhimdir. Mamlakatimizda ham barqaror iqtisodiy o'sishga, hududlarda ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirishga erishish uchun elektr energetika sohasiga

investitsiyalar yo'naltirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Shuningdek jinoyat darajasining o'zgarishi va iqtisodiy biznes sikllari o'rtasidagi bog'liqlik ehtimoli ko'plab sotsiolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Korxonalar albatta hududda mavjud holatlardan xabardor bo'lishlari kerak, chunki bu kichik hamda yirik korxonalarining kapitalini yo'qotishiga yoki shikast yetishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyotning tanazzulga uchrashi ham jinoiy faoliyatning kuchayishiga olib keladi. Iqtisodiy sikllar shuni ko'rsatadiki, vaqt iqtisodiy jihatdan og'irroq bo'lganda (ayniqsa, firibgarlik) noqonuniy faoliyat ko'payadi (Bressler)<sup>3</sup>. Shuning uchun davlat va xususiy sektor vakillari inqiroz davrida profilaktika choralarini ko'rishlari va xavfsizlik choralarini kuchaytirishlari kerak. Bu ularning aktivlarini himoya qilishga va jinoiy faoliyat tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

Normativ-huquqiy, tadbirkorlik institutlari, infratuzilma va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari kabi omillarni hisobga olgan holda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun dasturlar ishlab chiqish muhimdir. Bu hududlar, tuman va shaharlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Erishilgan natijalar shuni ko'rsatadiki mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan tegishli me'yoriy-huquqiy baza samarali infratuzilmani rivojlantirish tadbirkorlik uchun zaruriy shartdir. Yuqoridagi empirik tahlillarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi hududlarida infratuzilma qanday rivojlanishi kerakligini

<sup>2</sup> Escribano, A. and Guasch, J.L. and Pena, J. (2009): Assessing the Impact of Infrastructure Constraints on Firm Productivity in Africa. Working Paper 9, Africa Infrastructure Sector Diagnostic, World Bank. Washington D.C.

<sup>3</sup> Bressler, Martin s. The Impact of Crime on Business: A Model for Prevention ... - AABRI. <https://www.aabri.com/manuscripts/09202.pdf>.

ko'rsatuvchi turli xil xulosalarni sanab o'tish mumkin, jumladan:

- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus institutlarni rivojlantirish;
- davlat, viloyat va shahar darajasida milliy qonunchilik bazasi va mahalliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus tashkilotlar tashkil etish;
- maqsadli grantlar, subsidiyalar va kreditlarni taqsimlash;
- biznesning barcha bosqichlarida tadbirkorlik sohasida konsalting;
- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- elektr energiyasi va boshqa turdagi zarur energiya manblaridan foydalanishni osonlashtirish;
- ilg'or infratuzilmaga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash;
- intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha tashabbuslarni ishlab chiqish va h.k.

#### **Xulosa**

- Hududlarda birliklardagi infratuzilma tarkibiy qismlarining so'nggi yillardagi holati chuqur tahlil qilingan;
- Davlat tomonidan energetika sohasidagi belgilab olingan maqsadlarga ko'ra, energiya infratuzilmasini tejamkor va yashil energiya tomon yo'naltirish bo'yicha sezilarli ishlar ko'zga tashlanmayapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kam kiritilmoqda, loyihalarning ko'pchilik qismini gaz va neft sohalari tashkil etmoqda.
- Hududlarda tadbirkorlik sub'yektlari uchun zarur infratuzilmani shakllantirish, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash, ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirish borasida qilinayotgan amaliy ishlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning soni so'nggi dekabrda 31 foizdan 57,5 foizga yoki 1,8 barobarga oshdi;

- Mamlakatimizda kichik va o'rta korxonalarining iqtisodiy o'sish va bo'sh ish o'rinlarini yaratishda ulushi ortib bormoqda;

- COVID 19 keltirib chiqargan qiyinchiliklarga qaramasdan, kichik biznes va tadbirkorlik sohasi kengayishda davom etmoqda;

- O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida doimiy unumdorlikka erishish uchun hududlarda yetarlicha infratuzilma sig'imi mavjud. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida hududlarda tadbirkorlik infastrukturasini rivojlantirish uchun ularning xarakteristikasidan kelib chiqish va moliyaviy resurslarni o'zlashtirishning samarali va ta'sirchan mehanizmlarini yaratish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ruipeng Tan, Lulu Pan, Mengmeng Xu, Xinju He, "Transportation infrastructure, economic agglomeration and non-linearities of green total factor productivity growth in China: Evidence from partially linear functional coefficient model", *Transport Policy*, 2022, ISSN 0967-070X, <https://doi.org/10.1016/j.tranpol.2022.09.027>.
2. [Rong, K.](#), [Liu, Z.](#) and [Shi, Y.](#) (2011), "Reshaping the business ecosystem in China: case studies and implications", *Journal of Science and Technology Policy in China*, Vol. 2 No. 2, pp. 171-192. <https://doi.org/10.1108/17585521111155228>
3. Yang, J.Y., Li, J. The development of entrepreneurship in China. *Asia Pacific J Manage* **25**, 335-359 (2008). <https://doi.org/10.1007/s10490-007-9078-8>
4. He, C., Lu, J. & Qian, H. Entrepreneurship in China. *Small Bus Econ* **52**, 563-572 (2019). <https://doi.org/10.1007/s11187-017-9972-5>

5. Atherton, A., & Newman, A. (2017). *Entrepreneurship in China: The Emergence of the Private Sector* (1st ed.). Routledge.  
<https://doi.org/10.4324/9781315625126>
6. Li, H. (2012). *History and Development of Entrepreneurship in China. Entrepreneurship and Economic Growth in China*, 13–34. doi:10.1142/9789814273374\_0002
7. Douglas Zhihua Zeng (2012) “China’s Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and Challenges” Lincoln Institute of Land Policy Working Paper, [help@lincolninst.edu](mailto:help@lincolninst.edu)
8. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
10. <https://www.rics.org/es/wbef/megatrends/markets-geopolitics/case-study-how-does-china-pay-for-her-infrastructure--an-introduction/>
11. <https://www.google.com/search?q=special+economic+zones+in+china&source=lnms&tbm=isch&sa=X&ved=2ahUKEwiCqgWt1676AhXmIYsKHZl6CvkQAUoAXoECAlQAw&biw=1366&bih=635&dpr=1#imgrc=zar-k1hHLVj0M>
12. <https://www.hurriyetaidailynews.com/minister-unveils-major-investment-plans-for-transport-infrastructure-172768>
13. Rustamovich N. A. SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN DEVELOPMENT INTERNAL TO RESOURCES BASED ON TERRITORIAL INFRASTRUCTURE IMPROVEMENT //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – T. 25. – С. 47.
14. Narkuziyev A. R. ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING HORIJ TAJRIBASINI QO „LLASH (O „ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 2. – С. 390-400.
15. Норқўзиёв А. Р. ИҚТИСОДИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА ИНФРАТУЗИЛМА ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – С. 157-161.
16. Наркузиёв А. Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-14.
17. Narkuziyev A. R. ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING HORIJ TAJRIBASINI QO „LLASH (O „ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 2. – С. 390-400.
18. Норқўзиёв А. ХУДУДЛАРНИНГ ЛОГИСТИК ИНФРАТУЗИЛМА САЛОҲИЯТИ ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 419-423.
19. Rustamovich N. A. O ‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA INNAVATSION USULDA FOYDALANISH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 104-115.
20. Rustamovich N. A. O ‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY

INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH  
IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA  
INNAVATSION USULDA FOYDALANISH  
//O'ZBEKISTONDA FANLARARO  
INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR  
JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 104-  
115.

21. Narkuziyev A., Norbekova M.  
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMA  
FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH //Science  
technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. –  
№. 3. – C. 171-186.

22. Rustamovich N. A. ROLE OF  
INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL  
BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP  
ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //Spectrum  
Journal of Innovation, Reforms and  
Development. – 2022. – T. 9. – C. 412-416.

23. Наркузиев А. Р.  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ  
ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ  
ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА  
//PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING  
METHODS. – 2023. – T. 2. – №. 21. – C. 11-  
14.

24. Norkuziyev A. R. Theoretical  
Analysis Of Role Infrastructure On The  
Development Smes In Uzbekistan  
//International Conference Dedicated To The  
Role And Importance Of Innovative  
Education In The 21st Century. – 2022. – T.  
1. – №. 9. – C. 131-135.

25. Akramovich N. A. The priority  
of using innovative technologies in the  
agricultural education system //Journal of  
Academic Research and Trends in  
Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №.  
10. – C. 185-191.

26. Akramovich N. A. HISTORY,  
SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF"  
MACROECONOMICS" //Galaxy International

Interdisciplinary Research Journal. – 2022. –  
T. 10. – №. 1. – C. 209-210.

27. Nizametdinov A. A. OLIY  
TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING  
USTUVORLIGI UNDA  
INNOVATSIYALARNING QULLANISHI  
//INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. –  
T. 1. – №. 6. – C. 96-98.

28. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z.  
THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE  
DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of  
Academic Research and Trends in  
Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №.  
12. – C. 130-136.

29. Xolmuradovich X. B. et al.  
BUSINESS ETHICS AND CULTURE, RULES  
FOR ITS WORK //Journal of Academic  
Research and Trends in Educational  
Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 184-  
191.

30. Akramovich N. A., Azamatovna  
U. S. TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:  
DOLZARB TENDENTSIYALAR VA STRATEGIK  
YONALISHLAR //INTERDISCIPLINE  
INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH  
CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C.  
36-40.

31. Худояров Р., Низаметдинов  
А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В  
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ  
ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский  
журнал образования и инноваций. – 2023.  
– T. 2. – №. 6 Part 2. – C. 188-193.

32. Raipovna V. S., Akramovich N.  
A., Durdona A. CONTENT AND  
FUNCTIONING OF THE MARKET ECONOMY  
//Journal of Academic Research and Trends  
in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №.  
12. – C. 105-110.